

**FARG'ONA VODIYSINING SHARBAT AJRATUVCHI POLIZ O'SIMLIKLARI**

**Murodjon Xolikulov**

*Farg'ona davlat universiteti ekologiya kafedrasи katta o'qituvchisi*

**Botirjon Ismoilov**

*Farg'ona shahar ko'p tarmoqli texnikumi ekologiya yo'nalishi o'qituvchisi*

Poliz ekinlari - oziq-ovqat, yem-xashak va texnika maqsadlarida ekiladigan, palak otib o'sadigan madaniy ekinlar guruhi hisoblanadi. Ayrim olimlar poliz ekinlariga faqat tarvuz, qovun va qovoqlarni kiritadilar. Ular chirmashib yoki yerda palak yotib o'sadi. Osiyo, Afrika va Amerikaning tropik va subtropik mamlakatlarida tarqalgan. Hozirgi davrda barcha qit'alarda ekiladi. Jumladan O'rta Osiyo, Kavkaz, Ukraina, AQSH, Bolgariya, Ispaniyada ko'plab yetishtiriladi. Poliz ekinlari mevasi parhez xususiyatiga, qimmatli oziq-ovqat mahsuloti, chorva mollariga ozuqa sifatida ham beriladi. Urug'idan yog' olinadi.

Ma'lumki Farg'ona vodiysining iqlim sharoiti va tabiatni poliz ekinlarni ko'plab etishtirishga imkon beradi. Bundan tashqari poliz ekinlari halqimizning eng sevimli va foydali mahsulotlari hisoblanadi. Shuning uchun ham poliz ekinlari juda katta maydonlarga ekiladi. Qaysiki ularning barchasi nektar-shirali va gulchangi beruvchi hisoblanadi.

Qariyb Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarida poliz ekinlariga asosan qovun, tarvuz, bodiring va oshqavoqlar kiradi. Poliz ekinlari bir uyli hisoblanadi, ya'ni changchilik va urug'chilik gullari bir o'simlik o'zida bo'lsa ham ular alohida-alohida gulda joylashadi. Shu tufayli ham poliz ekinlarini, hasharotlar trufayli chetdan changlatish kerak. Poliz ekinlarini chetdan changlatishda, asosan asalarilarning ahamiyati g'oyat katta hisoblanadi. Bu o'simliklarning gullari nisbatan katta-katta bo'lib shira ajratuvchi bezlari yahshi taraqqiy etgan. Shuning uchun ham ular ko'p gul shira ajratadilar. Bundan tashqari poliz ekinlaridan ko'p gul changi olinadi. Bu ekinlar madaniy holda o'stirilganligi uchun ular har yili ko'plab gul shira ajratadilar. Har yili ularni doim sug'orilib va boshqa agrotexnik ishlovlar berishib turilishi, ularni gul shira miqdorini ko'payishiga ham olib keladi. Bularidan tashqari poliz ekinlari butun yoz bo'yи va kuz oyolarida ham gullab turaveradi. Bir tup o'simlikdagi gullar navbat bilan 2 oygacha gullab turaveradi. Shu tufayli bu ekinlar asalarilar uchun g'oyat zo'r asal olish manbalari hisoblanadilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Vodiyning barcha shahar va tumanlari atroflarifa parnik xo'jaliklari ham yildan yilga rivojlanib bormoqda. Parnik xo'jaliklariga ham asalarilarni keltirib joylashtirish kerak. Poliz ekinlaridan asalarichilikda to'liq foydalanish kerak.

Quyida poliz ekinlarining asalshirali turlarni keltirib o'tamiz (jadval -1).

Farg'ona vodiysining poliz o'simliklari florasi, hamda ularning gulshira (nektar) mahsuldorliklari.



(jadval № 1)

№	Oila va tur tarkibi	Gulshirali	Gulshirali, gul changli	Gulchangli	Bir gul hisobiga gulshira miqdori (mg)	Gulshira konsetrasiyasi (%)	Gulshira maxsuldarligi (kg/ga)	
1	2	3	4	5	6			
<b>Cucurbitaceae</b>								
1	Citrullus vulgaris Schard. (Tavuz)		+		4	29	20	
2	Cucumis orientalis (S.Kudr.) Nab. (Qovun)		+		3,5	26	30	
3	sativus L. (Bodiring)		+		1,8	23	25	
4	Cucurbita moschata Duch. (Oshqovoq)		+		3,8	37	42	

Olingen tadqirot natijamizda keltirilgan jadvalda poliz ekinlaridan tarvuz, qovun, bodiring va oshqavoqlarning gullari 1,8 dan to 4 milligramgacha gul shira ajratadilar. Gul shiradagi shakar miqdori esa 23 dan 37% gachani tashkil qiladi. Har bir gettar poliz ekinlari maydonlaridan 20 dan tortib to 30-42 kilogramgacha asal olish mumkin.

Hozirgi paytda tabiiy ekotizmlarga tushayotgan antropogen taziyqlar tufayli foydali hasharotlarni areallari qisqarib, ularni miqdori kamayib bormoqda. bundan tashqari qishloq xo'jalik ekinlari kushandalariga qarshi kimyoviy yo'l bilan kurashish ham foydali xasharotlar populyatsiyalarini kamayishiga olib kelayotgan bir paytda, qanotli do'stlarimiz hisoblangan asalarilarning roli yanada oshib bormoqda. Bu borada asosiy vazifa asalarilar zimasiga tushmoqda. Yozgi oilasida 40-50 mingta ishchi asalari bo'lib, ular butun bahorgi va yozgi paytda juda ko'p nektar va gul changi to'playdilar. Buning uchun ular beqiyos ravishda juda katta foydali ishni bajaradilar. Xar bir ishchi asalari xar safar 100-150 va undan ortiq gullarga qo'nib, nektar va gul changi to'playdilar. Eng muhim omil shuki, asalari oillarini reja asosida ko'paytirib, ularni kerakli poliz ekinlariga yoki boshqa joylarga joylashtirish mumkin. Kerak bo'lsa, asalari oilalarini ekinlarni kimyoviy preparatlar bilan ishlov berganda, ularni himoya qilish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Nazarov, M. (2022). Description of ecosystems. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 282-287.



2. Назаров, М. (2022). ЭКОСИСТЕМАЛАР МАҲСУЛДОРЛИГИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ МУАММОСИ. *Research Focus*, 1(4), 230-235.
3. Nazarov, M. (2022). Biological basis for plant growth and development management. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 244-249.
4. Nazarov, M., & Gaybullaeva, M. (2021). The importance of using legumes today. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1127-1131.
5. Nazarov, M., & Gaybullaeva, M. (2020). Influencace of Ecological Factors on Photosynthesis Processes In Legumes. *Agro Science Journal*.
6. Холикулов, М. Р. (2022). АСАЛЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 703-709.
7. Ҳамидов, F., Холикулов, М., & Омонбоев, Т. (2022). АСАЛЛИ ЎСИМЛИКЛАР КЛАССИФИКАЦИЯСИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 173-179.
8. Холикулов, М. Р., & Ҳамидов, Г. Х. (2022). ФЛОРИСТИЧЕСКИЙ СОСТАВ МЕДОНОСНЫХ РАСТЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ПУТИ ИХ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ. В журнале представлены научные обзоры, статьи проблемного и научно-практического характера, 44.
9. Ҳамидов, Г. Х., Давидов, М. А., Акбарова, М. Х., & Холикулов, М. Р. (2019). Узбекистон асалли усимлеклари ва асаларичилик истикболлари. *Фаргона: Poligraf Super Servis*.
10. Холикулов, М., & Ёқубов, Ж. (2022). ГУЛШИРАНИНГ ҚАЙТА-ҚАЙТА ОЛИНИШИНИ УНИНГ УМУМИЙ МИКДОРИНИ ОШИРИЛИШИГА ИЖОБИЙ ТАЪСИРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(6), 81-86.
11. Kholikulov, M. R. (2019). Current Status of Plant Resources in The Ferghana Valley and Opportunities To Use Them. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 8.
12. Xolikulov, M. R. (2020). THE HERB (*Capparis spinosa L*) IS AN IMPORTANT HONEY PLANT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 165-170.